

TIJORAT BANKLARIDA KOMPLAYENS AMALIYOTINING ZAMONAVIY HOLATI, MAVJUD MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLAR

Abdimo‘minov Boxodir Alisher o‘g‘li
tadqiqotchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada tijorat banklarida komplayens amaliyotining hozirgi holati, xalqaro standartlar bilan uyg‘unligi hamda rivojlantirish istiqbollari tadqiq etildi. Tadqiqot davomida FATF tavsiyalari, Bazel qo‘mitasi standartlari va O‘zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy bazasi qiyosiy tahlil qilindi. Tijorat banklarida xatarga yo‘naltirilgan nazorat tizimi, JFODL/TMQK mexanizmlari, sanksiyaviy komplayens va RegTech texnologiyalarining amaliy qo‘llanishi baholandi. Tadqiqot natijasida komplayens funksiyasining bank barqarorligi, xalqaro integratsiya va reputatsion xavflarni kamaytirishdagi ahamiyati asoslab berildi. Sun‘iy intellekt asosidagi monitoring tizimlarini joriy etish, benefitsiar egalar reyestrini shakllantirish va komplayens mutaxassislarini sertifikatlash bo‘yicha ilmiy takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: komplayens, tijorat banklari, FATF, Bazel standartlari, JFODL/TMQK, RegTech, sanksiyaviy nazorat, risk-menejment, bank nazorati.

Аннотация

В данной статье исследовались текущее состояние комплаенс-практики в коммерческих банках, её соответствие международным стандартам и перспективы развития. В ходе исследования был проведён сравнительный анализ рекомендаций FATF, стандартов Базельского комитета и нормативно-правовой базы Республики Узбекистан. Оценивались механизмы риск-ориентированного надзора, системы ПОД/ФТ, санкционный комплаенс и применение технологий RegTech в банковской деятельности. Результаты исследования подтвердили значимость комплаенс-функции для обеспечения финансовой устойчивости банков, снижения репутационных рисков и расширения международной интеграции. Также были разработаны научные предложения по внедрению систем мониторинга на основе искусственного интеллекта, созданию реестра бенефициарных владельцев и совершенствованию системы подготовки и сертификации комплаенс-специалистов.

Ключевые слова: комплаенс, коммерческие банки, FATF, стандарты Базеля, ПОД/ФТ, RegTech, санкционный контроль, риск-менеджмент, банковский надзор.

Abstract

This article examined the current state of compliance practices in commercial banks, their alignment with international standards, and future development prospects. The study conducted a comparative analysis of FATF recommendations, Basel Committee standards, and the regulatory framework of the Republic of Uzbekistan. Risk-based supervision mechanisms, AML/CFT systems, sanctions compliance, and the application of RegTech technologies in banking operations were evaluated. The findings confirmed the importance of the compliance function in strengthening

financial stability, reducing reputational risks, and expanding international integration of commercial banks. The research also developed scientific recommendations on implementing artificial intelligence-based monitoring systems, establishing a beneficial ownership registry, and improving certification and training mechanisms for compliance specialists.

Keywords: compliance, commercial banks, FATF, Basel standards, AML/CFT, RegTech, sanctions compliance, risk management, banking supervision.

KIRISH

Jahon moliya tizimining globallashuvi, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi hamda geosiyosiy keskinliklarning ortishi sharoitida tijorat banklari faoliyatida komplayens-nazorat tizimining oʻrni misli koʻrilmagan darajada oshib bormoqda. Zamonaviy bank boshqaruvida komplayens endi faqat qonunchilik talablariga rasmiy ravishda amal qilish emas, balki bankning reputatsiyasi, moliyaviy barqarorligi va xalqaro bozorlardagi mavqeyini belgilab beruvchi strategik funktsiya sifatida qaralmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasida soʻnggi yillarda bank-moliya tizimini isloh qilish doirasida komplayens-nazorat tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish boʻyicha jiddiy ishlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026-yillar davomida Markaziy bank tomonidan banklarning xatarga yoʻnaltirilgan nazorat (Risk-Based Supervision) tizimiga oʻtkazilishi, sanksiyaviy xatarni boshqarish boʻyicha maxsus boʻlinmalar tashkil etilishi, shuningdek, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish (JFODL/TMQK) sohasidagi meʼyoriy-huquqiy bazani takomillashtirilishi buning yorqin dalilidir.

Ayni vaqtda, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2030-yilgacha boʻlgan taraqqiyot strategiyasida mamlakat bank sektorini jahon moliya tizimiga chuqurroq integratsiya qilish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va eksport salohiyatini oshirish kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Bunday sharoitda tijorat banklarining komplayens funksiyasi ayni shu maqsadlarga erishishning kalit mexanizmiga aylanmoqda. Xorijiy banklar bilan korrespondent munosabatlarining saqlanib qolishi, xalqaro toʻlov tizimlaridagi faol ishtirok va transchegaraviy bitimlarning shaffofligi bevosita komplayens-nazoratning sifatiga bogʻliqdir.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi quyidagi omillar bilan izohlanadi: birinchidan, 2024-yilning ikkinchi yarmidan boshlab FATF besh-besh yillik oʻzaro baholash jarayonini boshladi va bunda samaradorlik koʻrsatkichlariga alohida urgʻu berilmoqda; ikkinchidan, 2025-yil oktyabr oyida FATF Tavsiyalariga kiritilgan oʻzgartirishlar komplayens talablarini yangi bosqichga koʻtarib qoʻydi; uchinchidan, Jahon bankingning 2024-yilgi Moliya sektorini baholash dasturi (FSAP) natijalariga koʻra, Oʻzbekiston Markaziy banki yangi xatarga yoʻnaltirilgan nazorat metodologiyasini bosqichma-bosqich joriy etmoqda.

Maqolaning maqsadi Oʻzbekiston tijorat banklarida komplayens amaliyotining hozirgi holatini baholash, muammolarni aniqlash va uni takomillashtirish boʻyicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot vazifalari: (a) komplayens tushunchasining nazariy mohiyatini ochib berish; (b) xalqaro standartlar bilan milliy

normativ bazani qiyosiy tahlil qilish; (v) komplayens nazorat tizimining asosiy komponentlarini hamda ularning samaradorligini baholash; (g) tizimni takomillashtirish istiqbollarini belgilashdan iborat.

ADABIYOTLAR SHARHI

Komplayens-nazorat tizimining nazariy va amaliy asoslari xalqaro ilmiy adabiyotlarda keng tadqiq qilingan. Bazel bank nazorati qo‘mitasining “Compliance and the compliance function in banks” hujjatida komplayens bank faoliyatida qonunchilik, regulativ talablar va ichki standartlarga rioya etilishini ta‘minlovchi strategik nazorat funksiyasi sifatida talqin etilgan [5]. Bazel qo‘mitasining keyingi tadqiqotlarida komplayens funksiyasining bank boshqaruvi, operatsion barqarorlik va risklarni boshqarish tizimi bilan uzviy bog‘liqligi asoslab berilgan [6].

FATF tavsiyalarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashishda xatarga yo‘naltirilgan yondashuv asosiy tamoyil sifatida belgilangan [7]. FATFning yangi metodik tavsiyalarida komplayens monitoringi, benefitsiar egalar shaffofligi hamda moliyaviy inklyuziya masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan [8]. Yevrosiyo guruhi (EAG) hisobotlarida O‘zbekiston bank sektorida komplayens tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan islohotlar ijobiy baholangan [9; 10].

Xorijiy olimlardan J. Tarantola va H. Edwards komplayens-risk menejmentini zamonaviy bank boshqaruvining ajralmas qismi sifatida baholab, uning bank reputatsiyasi va xalqaro integratsiyadagi rolini tahlil qilgan [17]. C. Steyn va M. van Marsschalk moliyaviy institutlarda komplayens samaradorligini baholashning miqdoriy modellarini ishlab chiqqan bo‘lib, ularda ichki nazorat, xodimlar salohiyati va risk indikatorlari asosiy omillar sifatida ko‘rsatilgan [18].

Mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ham komplayens va bank nazorati masalalari keng o‘rganilgan. Sh.Z. Abdullayeva bank xatarlarini boshqarish va ichki nazorat tizimini takomillashtirishning nazariy-uslubiy asoslarini ishlab chiqqan [13]. B.H. Berdiyurov tijorat banklarida raqamli transformatsiya sharoitida ichki nazorat va RegTech texnologiyalarining ahamiyatini tahlil qilgan [14]. A.A. Karimov esa tijorat banklarida komplayens xizmatini tashkil etish va uning institutsional mexanizmlarini rivojlantirish masalalarini o‘rgangan [15].

Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg‘armasi hisobotlarida O‘zbekiston bank sektorida xatarga yo‘naltirilgan nazorat tizimini joriy etish, komplayens infratuzilmasini modernizatsiya qilish hamda xalqaro moliyaviy standartlarga integratsiyalashuv jarayonlari ijobiy baholangan [11]; [12]. Zamonaviy ilmiy yondashuvlarda sun‘iy intellekt, RegTech, ESG-komplayens va sanksiyaviy monitoring tizimlari bank boshqaruvining istiqbolli yo‘nalishlari sifatida ko‘rilmogda. Shu bilan birga, ushbu mexanizmlarni milliy bank tizimiga moslashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish zarurligi saqlanib qolmogda.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot sifat va miqdoriy tadqiqot usullarini mujassamlashtirgan murakkab (mixed-methods) yondashuv asosida olib borildi. Tadqiqotning nazariy-

metodologik asosini bank nazariyasi, xatarlarni boshqarish konsepsiyasi, institutsional iqtisodiyot hamda xalqaro moliyaviy nazorat sohasidagi ilmiy ishlanmalar tashkil etadi.

Tadqiqotda quyidagi usullardan foydalanildi:

Qiyosiy-huquqiy tahlil usuli - Bazel bank nazorati qo‘mitasi tavsiyalari, FATF 40 ta tavsiyasi, OB yo‘riqnomalari hamda O‘zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlarini solishtirish orqali milliy tizimdagi uyg‘unlik darajasini baholash maqsadida qo‘llanildi. Bu usul muqobil tajribalarni tahlil qilish va eng yaxshi amaliyotlarni aniqlashga imkon berdi.

Statistik tahlil usuli - Markaziy bank, Moliya monitoringi departamenti hamda xalqaro tashkilotlarning (Jahon banki, IMF, FATF, Yevrosiyo guruhi) ochiq hisobotlari asosidagi ma‘lumotlarni tahlil qilish uchun ishlatildi. Dinamik qatorlar, o‘shish sur‘atlari hamda nisbiy ko‘rsatkichlar asosida tendensiyalar aniqlandi.

Tizimli yondashuv usuli - komplayens-nazoratni mustaqil elementlar yig‘indisi sifatida emas, balki o‘zaro bog‘liq komponentlardan iborat yaxlit tizim sifatida o‘rganish imkonini berdi. Bunda tizimning kirish (input), jarayon (process) va chiqish (output) elementlari alohida-alohida tahlil qilindi.

Xatarga yo‘naltirilgan tahlil - bank faoliyatidagi turli xatarlarni (yuridik, reputatsion, operatsion, sanksiyaviy) kompleks baholash hamda ularning o‘zaro ta‘sirini aniqlash maqsadida qo‘llanildi. Bu yondashuv FATF Tavsiyasi 1 tomonidan tavsiya etilgan metodologik asosga mos keladi.

Tadqiqot obyekti - O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan tijorat banklarining komplayens-nazorat tizimi. Tadqiqot predmeti esa - mazkur tizimning nazariy-huquqiy asoslari, amaliy mexanizmlari hamda xalqaro standartlarga muvofiqlik darajasini baholashdan iborat. Tadqiqot xronologik doirasi 2020-2026-yillarni qamrab oladi, bu davrda O‘zbekiston bank sektorida eng muhim islohotlar amalga oshirilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklari faoliyatidagi komplayens - bank tomonidan amal qilinadigan barcha yuridik normalar, tartibga soluvchi talablar, ichki nizomlar hamda etik standartlarga rioya qilmaslik xavfini oldini olish va boshqarish funksiyasidir. Zamonaviy bank amaliyotida komplayens keng tushuncha bo‘lib, o‘z ichiga bir necha yirik yo‘nalishlarni qamrab oladi.

Birinchi yo‘nalish - JFODL/TMQK (jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish) bo‘yicha komplayens. Bu yo‘nalish FATF 40 tavsiyasi, EUroosiyo guruhi metodologiyasi hamda O‘zbekiston Respublikasining 2004-yil 26-avgustdagi O‘RQ-660-son Qonuni talablariga asoslanadi. Uning asosiy elementlari mijozni lozim darajada tekshirish (KYC/CDD), shubhali operatsiyalar monitoringi, foydalanuvchining haqiqiy benefitsiarini aniqlash hamda siyosiy jihatdan taniqli shaxslarni (PEP) aniqlashdan iborat.

Ikkinchi yo‘nalish - sanksiyaviy komplayens. Bu yo‘nalish so‘nggi yillarda geosiyosiy vaziyatning keskinlashuvi natijasida ayniqsa muhim ahamiyat kasb

etmoqda. Sanksiyaviy komplayens deganda bankning xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar (AQSH OFAC, Yevropa Ittifoqi, BMT) tomonidan joriy etilgan sanksiyaviy cheklolarni buzmaslik uchun ichki qoidalar va jarayonlar tizimi tushuniladi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki hisobotlarida qayd etilishicha, 2022-yildan boshlab tijorat banklarida sanksiyaviy xatarlarni boshqarish bo‘yicha maxsus bo‘linmalar tashkil etilgan.

Uchinchi yo‘nalish - soliq komplayensi, u bankning soliq qonunchiligi talablariga rioya etishini ta‘minlaydi hamda xalqaro doirada FATCA (AQSH) va CRS (OECD) kabi avtomatik axborot almashish standartlariga rioya qilishni qamrab oladi. To‘rtinchi yo‘nalish - etik komplayens yoki korporativ komplayens deb nomlanadi va korporativ etika, manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish, insayder axborot bilan ishlash bo‘yicha qoidalarni o‘z ichiga oladi.

Tijorat banklari komplayens amaliyotining xalqaro huquqiy asosini bir necha yirik standartlar tashkil etadi. Quyidagi jadvalda xalqaro va milliy regulyativ aktlarning qiyosiy tahlili keltirilgan.

1-jadval

Komplayens sohasidagi xalqaro standartlar va ularning O‘zbekistondagi aksi

| Xalqaro standart | Asosiy talablar | O‘zbekistondagi me‘yoriy aksi |
|---|---|---|
| FATF 40 tavsiyasi 2012-yil yangisi 2025-yil | JFODL/TMQK, xatarga yo‘naltirilgan yondashuv, KYC, benefitsiar egasini aniqlash | O‘RQ-660-son Qonuni 2004-yil MB Nizomi № 3401 2022-yil |
| Bazel III (BCBS) | Kapital yetarliligi, likvidlilik me‘yorlari, operatsion xatar boshqaruvi | MB Nizomi № 2693 2015-yil, № 3308 2021-yil- Bazel III talablari bosqichma-bosqich joriy etilgan |
| BCBS “Compliance Function” (2005) | Komplayens funksiyasining mustaqilligi, uning bank boshqaruvi tizimidagi o‘rni | Korporativ boshqaruv bo‘yicha MB yo‘riqnomasi, ichki nazorat bo‘yicha qoidalar |
| OFAC, EU, BMT sanksiyalari | Sanksiya ostidagi shaxslar bilan operatsiyalarni taqiqlash, to‘lovlar skriningi | MB yo‘riqnomalari, tijorat banklari ichki nizomlari (2022-yildan kuchaytirilgan) |
| CRS, FATCA | Moliyaviy axborotni avtomatik ravishda almashish | O‘zbekiston 2025-yildan CRS tizimiga qo‘shildi |

1-jadval ma‘lumotlari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Respublikasi so‘nggi o‘n yil mobaynida o‘z bank sektorini jahon moliya tizimining asosiy standartlariga moslashtirish bo‘yicha izchil ish olib bormoqda. Ayniqsa, FATF tavsiyalarining 2022-yilgi Yevrosiyo guruhi (EAG) baholashi natijalari asosida bajarilishi O‘zbekiston Respublikasining 6, 7 va 22-Tavsiyalari bo‘yicha reytingi “Qisman mos” (Partially Compliant) darajasidan “Sezilarli mos” (Largely Compliant) darajasiga ko‘tarilishiga olib keldi. Bu muhim yutuq O‘zbekistonning kuchaytirilgan monitoringdan muntazam monitoringga o‘tkazilishini ta‘minladi.

Jahon bankingning 2024-yil noyabr oyidagi Moliya sektorini baholash dasturi (FSAP) hisobotiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki 2023-yilda xatarga yo‘naltirilgan nazorat (RBS) tizimining yangi metodologiyasini joriy etgan.

Mazkur metodologiya xalqaro tajribaga asoslangan bo‘lib, banklarning xatar profilini yaxlit baholashga yo‘naltirilgan.

2-jadval

O‘zbekiston Markaziy bankining xatarga yo‘naltirilgan nazorat metodologiyasini joriy etish dinamikasi¹

| Yil | Qamrab olingan banklar soni | Tematik inspeksiya (tijorat banklarida) | Joriy etish bosqichi |
|------|-----------------------------|---|--------------------------------|
| 2022 | - | 19 | Tayyorgarlik bosqichi |
| 2023 | 4 | 21 | Dastlabki tajriba |
| 2024 | 14 | 25 | Bosqichma-bosqich kengaytirish |
| 2025 | 36 (barcha banklar) | - | To‘liq joriy etish |

2-jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Markaziy bankining xatarga yo‘naltirilgan nazorat metodologiyasi nisbatan qisqa muddat ichida barcha 36 ta tijorat bankini qamrab olgan. 2025-yilda Qarzni qoplash yuklamasi nisbati (DSTI - Debt Service to Income) ko‘rsatkichi 60 foizdan 50 foizga tushirildi, bu esa banklarning kredit xatarini boshqarish sifatini oshirishga yo‘naltirilgan muhim qadam bo‘ldi. Shu bilan birga, Jahon banki ekspertlari hozirgi joriy etilayotgan metodologiya iqlim xatarlari hamda operatsion chidamlilik masalalarini yetarli darajada qamrab olmayotganligini ta’kidlashgan.

FATFning 2022-yilgi o‘zaro baholash hisobotiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi JFODL/TMQK tizimining samaradorligi bo‘yicha umumiy holat “O‘rtacha darajada samarali” (Moderate Effectiveness) deb baholangan. Biroq ayrim muhim yo‘nalishlar bo‘yicha - xususan, haqiqiy benefitsiar egasi shaffofligini ta’minlash, shubhali operatsiyalar natijasida olingan axborotni maqsadli foydalanish - “Past samaradorlik” (Low Effectiveness) baholari qayd etilgan. Bu yo‘nalishlar komplayens tizimini takomillashtirishning asosiy ustuvorliklaridan biridir.

Alohida diqqatga molik masala - Markaziy bankda JFODL/TMQK nazorati bo‘yicha joyda inspeksiya o‘tkazadigan bo‘linmaning kadrlar bilan ta’minlanganlik holatidir. Jahon banki hisobotiga ko‘ra, mazkur bo‘linmada atigi 8 ta shtat birligi mavjud bo‘lib, bu 36 ta tijorat bankini samarali nazorat qilish uchun yetarli emas. Bu masala komplayens tizimining institutsional salohiyatini mustahkamlash zarurligini ko‘rsatadi.

Geosiyosiy jarayonlarning keskinlashuvi, xususan 2022-yildan boshlangan xalqaro sanksiyaviy bosimning ortib borishi tijorat banklarining sanksiyaviy komplayens masalalariga jiddiy e’tibor qaratishini talab qildi. Bu borada 2023-yilning sentyabr oyida Markaziy bank tomonidan valyuta amaliyotlarining shaffofligini ta’minlash va ikkilamchi hisobvaraqlar orqali o‘tkaziladigan operatsiyalar ustidan nazoratni kuchaytirish bo‘yicha qaror qabul qilindi. Bu qaror xorijiy hamkor banklardan mijozni lozim darajada tekshirish (KYC) bo‘yicha talablarning kuchayishi natijasida qabul qilingan.

¹ Manba: Jahon banki FSAP hisoboti 2024-yil, MB ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

Tijorat banklari tomonidan sanksiyaviy komplayens bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlar tarkibiga quyidagilar kiradi: mijoz va uning qarshi tomoni bo'yicha sanksiyaviy ro'yxatlarni avtomatik skrining qilish tizimining joriy etilishi, ikki va undan ortiq yurisdiksiyalardagi mijozlarga nisbatan "boy tekshiruv" (enhanced due diligence) tartibining qo'llanilishi, shubhali operatsiyalar bo'yicha xalqaro tajribaga mos holda indikatorlar tizimining ishlab chiqilishi. Ayni vaqtda, sanksiyaviy komplayensning asosiy muammosi - bu xorijiy hamkor banklarning talablari va milliy tadbirkorlik subyektlarining qonuniy huquqlari o'rtasida mutanosiblikni ta'minlashdan iborat.

Zamonaviy tijorat banklarida komplayens funksiyasini samarali amalga oshirish uchun RegTech (Regulatory Technology) yechimlaridan foydalanish ajralmas zarurat bo'lib qolmoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt asosidagi tranzaksiya monitoringi tizimlari noto'g'ri ogohlantirishlar sonini 70-80 foizga kamaytirishga qodir. Bunday tizimlar mahalliy banklarimizga integratsiya qilish orqali komplayens xizmatining samaradorligi jiddiy ravishda oshirilishi mumkin.

O'zbekistonning yetakchi tijorat banklarida so'nggi yillarda AML-monitoring tizimlarining raqamlashtirilishi, KYC jarayonlarida biometrik identifikatsiya va elektron raqamli imzo texnologiyalarining qo'llanilishi keng yoyilmoqda. Biroq bu boradagi asosiy cheklovlar sirasiga mahalliy sharoitlarga mos kiberxavfsizlik standartlarining mutanosibligi, yuqori malakali kadrlar yetishmasligi va RegTech halli bo'yicha infratuzilma xarajatlarining yuqoriligi kiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida tijorat banklarida komplayens amaliyoti borasida quyidagi asosiy xulosalar shakllantirildi.

Birinchidan, tijorat banklarida komplayens funksiyasi zamonaviy bank boshqaruvining strategik ahamiyatga molik tarkibiy qismi sifatida qaror topgan. Uni yuzaki tushunilgan qonunchilikka rioya qilish sifatida emas, balki bankning reputatsiyasi, moliyaviy barqarorligi va xalqaro integratsiyasi darajasini belgilab beruvchi keng qamrovli boshqaruv funksiyasi sifatida qaralmog'i lozim.

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasining bank sektorida so'nggi besh yil ichida amalga oshirilgan islohotlar natijasida komplayens-nazorat tizimi xalqaro standartlarga sezilarli darajada yaqinlashgan. Bazel III talablarining bosqichma-bosqich joriy etilishi, FATF tavsiyalarining bajarilish darajasining oshishi, xatarga yo'naltirilgan nazorat metodologiyasining barcha banklarga tatbiq etilishi bu borada erishilgan muhim yutuqlardir.

Uchinchidan, shu bilan birga, komplayens tizimining ayrim jihatlari sezilarli takomillashtirishni talab qiladi. Xususan, haqiqiy benefitsiar egasi shaffofligini ta'minlash, JFODL/TMQK nazorati bo'yicha institutsional salohiyatni mustahkamlash (xususan, kadrlar bilan ta'minlanganlik), yangi xatar turlari (iqlim xatarlari, kiber-xatarlar, virtual aktivlar bilan bog'liq xatarlar)ni qamrab olish kabi yo'nalishlarda qo'shimcha ishlar talab qilinadi.

To'rtinchidan, geosiyosiy sharoitlar va sanksiyaviy bosimlar komplayens funksiyasiga yangicha chaqiriqlar tug'dirmoqda. Tijorat banklarining xorijiy hamkor

banklar bilan korrespondent munosabatlarini saqlab qolish, xalqaro to'lov tizimlaridagi faol ishtirokini ta'minlash va transchegaraviy bitimlarning shaffofligini oshirish uchun sanksiyaviy komplayens tizimini yanada takomillashtirish zarur.

Yuqorida aytilganlarni inobatga olgan holda, tijorat banklarida komplayens amaliyotini takomillashtirish bo'yicha quyidagi takliflar shakllantirildi.

Birinchi taklif - Markaziy bankning JFODL/TMQK nazorati bo'yicha joydagi inspeksiya bo'linmasi kadrlar salohiyatini sezilarli darajada oshirishni tavsiya etamiz. Ayni vaqtda mavjud 8 ta shtat birligini kamida 20-25 taga yetkazish, shuningdek, ish haqi va malaka oshirish tizimini kuchaytirish orqali yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilish zarur.

Ikkinchi taklif - tijorat banklarida sun'iy intellekt asosidagi tranzaksiya monitoringi tizimlarini joriy etishni rag'batlantirish hamda RegTech hallari bo'yicha mahalliy bozorni rivojlantirish maqsadida davlat-xususiy sherikchilik mexanizmlaridan foydalanish. Bu maqsadda maxsus inkubatsiya dasturlarini ishlab chiqish va Markaziy bank huzurida tegishli laboratoriyani (sandbox) tashkil etish maqsadga muvofiq.

Uchinchi taklif - O'zbekiston Respublikasida haqiqiy benefitsiar egalari bo'yicha markazlashtirilgan reyestrni tashkil etish va uni tijorat banklari uchun ochiq qilib berish. Bu chora FATF Tavsiyasi 24 talablariga to'liq mos keladi va KYC jarayonlarining sifatini sezilarli darajada oshiradi.

To'rtinchi taklif - tijorat banklarida komplayens mutaxassislarini tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha milliy sertifikatlash dasturini ishlab chiqish. Bu dastur xalqaro tajribaga (masalan, ACAMS, ICA sertifikatlari) asoslanishi hamda mahalliy sharoitlarni inobatga olgan holda moslashtirilishi lozim.

Beshinchi taklif - ESG tamoyillarining komplayens funksiyasiga integratsiya qilinishi bo'yicha yo'riqnomalarni ishlab chiqish. Bu zamonaviy xalqaro bank amaliyotida ustuvor yo'nalish bo'lib bormoqda va O'zbekiston bank sektorining xorijiy investorlar va moliya institutlari uchun jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Oltinchi taklif - sanksiyaviy komplayens sohasida tijorat banklari uchun yagona metodologik yo'riqnomani ishlab chiqish. Bu hujjatda xorijiy sanksiyaviy tartiblar bilan amal qilishning huquqiy-metodologik asoslari, milliy iqtisodiy manfaatlarni himoya qilish chora-tadbirlari hamda amaliy ishlab turuvchi mexanizmlari aniq belgilanishi kerak.

Mazkur takliflarning amalga oshirilishi O'zbekiston tijorat banklarining xalqaro moliya tizimiga chuqurroq integratsiya qilinishi, mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishi hamda "O'zbekiston - 2030" taraqqiyot strategiyasi doirasida belgilangan makroiqtisodiy barqarorlik maqsadlariga erishishga muhim hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 2004-yil 26-avgust O'RQ-660-II-son "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni <https://lex.uz/docs/-283717>

2. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 11-noyabr O‘RQ-582-son “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi Qonuni <https://lex.uz/uz/docs/-4590452>

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabr PF-158-son “O‘zbekiston - 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tijorat banklarida ichki nazorat qoidalariga oid yo‘riqnomalari va me‘yoriy hujjatlari. - Toshkent: MB nashriyoti, 2022-2025.

5. Basel Committee on Banking Supervision. Compliance and the compliance function in banks. - Bank for International Settlements, 2005. - 12 p.

6. Basel Committee on Banking Supervision. Core Principles for Effective Banking Supervision. - BIS, 2024. - 78 p.

7. FATF. International Standards on Combating Money Laundering and the Financing of Terrorism & Proliferation: The FATF Recommendations (updated October 2025). - Paris: FATF/OECD, 2025.

8. FATF. Updated Guidance on AML/CFT Measures and Financial Inclusion. - Paris: FATF/OECD, June 2025.

9. Eurasian Group on Combating Money Laundering and Financing of Terrorism (EAG). Mutual Evaluation Report: Republic of Uzbekistan. - Moscow: EAG, 2022. - 245 p.

10. EAG. Follow-up Report on the Republic of Uzbekistan. - Moscow, 2023.

11. World Bank. Republic of Uzbekistan - Financial Sector Assessment Program (FSAP). - Washington: World Bank Group, November 2024.

12. International Monetary Fund. Republic of Uzbekistan: Article IV Consultation Staff Report. - Washington: IMF, 2024.

13. Abdullayeva Sh.Z. Bank xatarlarini boshqarish: nazariya va amaliyot. - Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2020. - 296 b.

14. Berdiyurov B.H. Tijorat banklarida raqamli transformatsiya sharoitida ichki nazoratni takomillashtirish // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. - 2023. - № 4. - B. 45-58.

15. Karimov A.A. Tijorat banklarida komplayens xizmatini tashkil etish masalalari // Moliya. - 2022. - № 2. - B. 78-86.

16. Гамза В.А., Звонова Е.А. Финансовый комплаенс в коммерческом банке. - Москва: КНОРУС, 2021. - 320 с.

17. Tarantola J., Edwards H. Compliance Risk Management in Modern Banking. - London: Palgrave Macmillan, 2022. - 380 p.

18. Steyn C., van Marsschalk M. Measuring Compliance Effectiveness in Financial Institutions // Journal of Money Laundering Control. - 2023. - Vol. 26 (3). - P. 412-435.

19. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy veb-sayti. URL: <https://cbu.uz> (murojaat sanasi: 10.05.2026).

20. FATF rasmiy veb-sayti. URL: <https://www.fatf-gafi.org>



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, aprel, 4-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**